

QADIMGI XORAZM TARIXIY-ME'MORCHILIK YODGORLIKLARI

Tagandurdiyeva Shasenem Qurbon qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Tarix fakulteti Tarix ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada Qadimgi Xorazm davlati, me'morchilik inshootlari, ularning qurilish uslublari, o'rganilish asoslari arxeologik-etnografik ekspeditsiyalar haqida ma'lumot berish.

Kalit so'zlar: Qadimgi Xorazm, Tuproqqal'a, Kat (hozirgi Beruniy), Yonboshqal'a, Tolstov, Y.G'ulomov, Qalaliqir.

Xorazm (arabcha: خوارزم) – Amudaryo sohillarida markazga ega O'rta Osiyo qadimiy mintaqasi – qadimiy davlat va rivojlangan irrigatsiyali dehqonchilik, hunarmandlik va savdo mintaqasi. Xorazm orqali Buyuk Ipak yo'li o'tgan. III asr oxirlarida Xorazm poytaxti Kat shahri bo'lgan; X asr oxirlarida poytaxt Urganch shahriga ko'chiriladi (hozirgi Ko'hna Urganch shahri). Xorazm hududi qadimda Amudaryo adoqlaridan janubga tomon Murg'ob va Tajan daryolarining yuqori oqimlarigacha cho'zilgan. Shu boisdan bu qadimiy tarixiy hudud fanda 2 xil: Qadimiy Xorazm va Katta Xorazm nomlari bilan ma'lum. Xorazm haqidagi ilk ma'lumotlar Avesto, Doro I ning Behistun kitoblari, qadimiy yunon mualliflari (Gekatey, Gerodot, Strabon va hokazo) hamda ilk o'rta asrlarning arab geograflari asarlarida mavjud. Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida shunday yozadi: "Xorazmliklar Xorazmga odamlar joylasha boshlaganidan tarix olar edilar. Bu Iskandardan 980 yil ilgari bo'lgan edi. Undan keyin Siyovush ibn Kaykovusning Xorazmga kelishidan, Kayxusrav va uning naslining Xorazmga podshohlik qilishlaridan tarix oldilar. Shu vaqtda Kayxusrav Xorazmga ko'chib, turk podshohlari (ustidan) hukmronligini yurgizgan edi. Bu voqea Xorazmga odam joylashishidan 92 yil keyin bo'ldi". Demak, 3 ming yil oldin ham Xorazmda turkiy qabilalar yashagan va davlat tizimi bo'lgan. Miloddan avvalgi ming yillik boshlariga aloqador "Amirobod madaniyati", quyi Amudaryo havzasidagi sun'iy sug'orish inshootlari tizimi (Gerodot qadimda Oks (Amu) daryosi bo'ylab 360 dan ziyod sun'iy sug'orish inshootlari barpo etilganligini yozadi) hamda dastlabki shaharsozlik timsoli bo'lgan shahar-qal'alar - Qal'aliqir, Ko'zaliqir, Jonbosqal'a va boshqalar Xorazm vohasidagi qadimiy davlatchilik belgilaridir. Xorazm tarixini chuqur o'rgangan mashhur rus olimi S.P.Tolstov "Qadimgi Xorazm" kitobida antik Xorazm tarixini to'rt davrga bo'ladi: 1. Uy-joy devorlari bo'lgan shahriston

madaniyati (miloddan avvalgi VI-IV asrlar)². Qanqa (Qang) madaniyati (miloddan avvalgi IV asr - milodiy I asr)³. Kushonlar madaniyati (milodiy II – II asrlar)⁴. Kushon-Afrig' o'tish madaniyati (milodiy Sh-V asrlar) Bu davrlarga oid Amudaryoning o'ng sohilida 250 dan ziyod, so'l sohilida 60 ta qadimiy shahar va qishloqlar o'rni topilgan. Qanqaqal'a, Qo'shqal'a, Tuproqqal'a, Jingilja, Toshxirmon singari qal'a va istehkomlar o'rni bunga misol bo'la oladi. Tuproq qal'a (milodiy I-VI asrlar) Sulton Uvays tog' tizmasidan bir necha kilometr janubda joylashgan. Ushbu qal'a antik davrda, Afrigidlar sulolasi hokimiyatga kelishidan oldin, Qadimgi Xorazm hukmdorlarining qarorgohi bo'lib xizmat qilgan. Yodgorlikning nomi, uning hozirgi holatidan kelib chiqib, katta tuproq tepalik degan ma'noni anglatadi. Tuproq qal'a majmuasi - shahar, yuqori saroy va shimoliy majmuadan iborat. Shahar - maydoni 500 × 350 m. to'g'ri burchakli shaklda bo'lib, balandligi 8-9 metrli mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Bundan tashqari, shahar ko'plab yassi burchakli to'rtburchak minoralarga ega bo'lib, yon atroflari keng xandaq bilan o'ralgan. Shahar darvozasi murakkab inshoot shaklida qurilgan bo'lib, ushbu darvozadan butun shahar bo'ylab qal'agacha kengligi 9 m. bo'lgan markaziy ko'cha o'tgan. Otashparastlar ibodatxonasida ko'plab o'choqlar aniqlangan. Yodgorlikdagi yana bir binoda qo'chqor shoxlari, shisha idishlar, gips haykallar parchalari ko'rinishidagi oltin bilan ishlov berilgan bilaguzuklar va boshqa zargarlik buyumlari topilgan. Yuqori saroy - kesilgan piramida shaklidagi saroyning asosiy massivi hom g'ishtdan qurilgan bo'lib, fasadi vertikal bo'rtib chiqqan naqshlar tizimi bilan bezatilgan. Tahorat xonasi, qurol-yarog'lar saqlash xonasi sifatida ishlatilgan taxminan 100 taga yaqin inshootlar hozirga qadar saqlanib qolgan. Yuqori qavatda tavba qilish uchun qurbonliklar qilinadigan ibodatxona mavjud bo'lgan. Saroyning asosiy qismini ibodat va marosim xonalari majmuasi egallagan. Inshootning devorlari naqshlar bilan, unga tegishli beshta zal esa rangbarang sopol barelyeflar bilan bezatilgan. Ushbu bezaklardan oz qismi bizgacha yetib kelgan. Kot, Kat, Kas — Xorazmdagi qadimiy shahar xarobasi bo'lib, hozirgi Beruniy shahridan 2,5 km shimolroqda joylashgan. Tarixiy manbalarga qaraganda, Kat turli davrlarda turlicha atalgan bo'lib (masalan Kas, Kaj, Fir, Fil) xorazmiy tilida „qishloq“ degan ma'noni anglatgan. Yoqut Xomaviyning yozishicha, Kat Jayhun (Amudaryo)ning sharqiy qirg'og'ida, Jurjoniyanidan 20 farsax narida bo'lgan. Undagi jome masjidi va xorazmshoh qarorgohi qal'a ortida joylashgan. Bozor shaharning markazida, Jardurishak soyi bo'yida bo'lgan. Muqaddasiy keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, Kat shahriston deb ham atalib, u kattaligi jihatidan Nishopurga teng edi. „Hudud ul-olam“ ga ko'ra, Kat o'rta asrlarda turki y elatlarning savdo-sotiq markaziga aylangan.

Samoniy esa o'zining „Kitob ul-ansob“ asarida Kat rabodi „berun“ deb atalganini qayd etgan.Y. G. G'ulomov birinchi o'zbek arxeolog-mutaxassisidir. Uning arxeologik dala ishlaridagi ishtiroki 1930-yillarning boshlariga to'g'ri keladi. Shunday qilib, mashhur arxeolog M. E. Masson 1933-yilda Ayritama traktida (Termiz yaqinida) olib borilgan arxeologik qidiruv ishlarini tasvirlar ekan, „Yosh yangi tadqiqotchi Samarqand pedagogika instituti bitiruvchisi Yahyo G'ulomov“ ekspeditsiyasida ishtirok etganini eslatib o'tadi. Ya. G'.G'ulomovning mustaqil arxeologik tadqiqotlari 1936-yilga to'g'ri keladi.Qadimgi Xorazm hududidagi alohida ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan arxeologik topilmalar, birinchi navbatda, S. P. Tolstov boshchiligidagi SSSR Fanlar akademiyasining Xorazm ekspeditsiyasi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan arxeologik topilmalar yaxshi ma'lum. Lekin, S. P. Tolstovning yozishicha, uning o'tmishdoshlari Yahyo G'ulomov va T.Mirg'iyozovkabi toshkentlik arxeologlar bo'lgan. 1937-yilda Y.G'ulomov Janubiy Qoraqalpog'istonning qadimiy sug'orish yerlarida o'z faoliyatini davom ettirib, o'rta asrlardagi Guldursun va Naridjon manzilgohlarini, milodiy birinchi asrlarga oid Shabbaz yaqinidagi Pilkala xarobalarini o'rganadi. 1938-yildan SSSR FA Moddiy madaniyat tarixi institutining S. P. Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tarkibida ishlagan.1943-yilda „Xiva va uning yodgorliklari“ mavzusida nomzodlik, 1950-yilda esa „Xorazmning qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha sug'orilishi tarixi“ mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qiladi[3]. 1955-yil mart oyida unga professor unvoni berildi.Jayhun (Amudaryo)ning ko'hna o'zani bo'yida; Toshhovuz viloyatining Oqtepa (Akdepe) shahridagi Amudaryoning qadimiy Sariqamish bo'yi deltasi hududida joylashgan Ko'zaliqir manzilgohi Xorazm tarixidagi arxaik davrning eng yirik yodgorligidir. Uning maydoni 25 gektar, qal'a devorlarining umumiy uzunligi taxminan 3 km ni tashkil qiladi. Yuriy Rapoportning ta'kidlashicha,Ko'zaliqir Gekatey Miletlikning „Yerning tavsifi“ asarida tilga olingan qadimgi Xorazm shahrida ham mavjud bo'lgan.Qal'aliqir – (yoki Kalaly-gyr; shuningdek Ayritam; turkmancha: Galalygyr) – hozirgi Turkmaniston hududidagi yo'qolgan qadimiy shahar, miloddan avvalgi V-IV asrlarda qadimgi Xorazmning ikkinchi poytaxti bo'lgan. Xorazm ekspeditsiyasi tadqiqotiga ko'ra, maydoni 70 gektarga yaqin bo'lgan Qal'aliqir 1 qal'asi Xorazmdagi eng yirik qadimiy manzilgoh hisoblanadi.Ayoz qal'a — milodiy II—IV asrlarga oid uchta qal'a xarobasidan iborat arxeologik yodgorliklar majmuasi[1]. Manzilgoh Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanida joylashgan. Qizilqum cho'liga qaragan tepalik cho'qqisidagi bu joy qadimiy Xorazm qal'asi xarobalarini o'z ichiga oladi. Ayoz qal'ani Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi topib (1937),

unda arxeologik qazishmalar olib bordi. Bu majmuadagi uchinchi qal'a mufassalroq o'rganildi. Uning sahni 260×180 m bo'lib, hovli va 40 xonali binodan iborat. Xonalarining umumiy maydoni 2400 m². Xona devorlari to'rtburchakli xom g'ishtdan terilgan. Ayoq qal'a majmuasida, asosan Kushon podsholigi davriga doir sopol, mehnat qurollari, qurol-yarog'lar, zeb-ziynat buyumlari va tangalar, jumladan, Kanishka pullari topildi. Ayoq qal'a o'z davrida Xorazmning shimoli-sharqiy chegarasida mustahkam istehkom vazifasini o'tagan. Ayoq qal'a — milodiy II—IV asrlarga oid uchta qal'a xarobasidan iborat arxeologik yodgorliklar majmuasi[1]. Manzilgoh Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanida joylashgan. Qizilqum cho'liga qaragan tepalik cho'qqisidagi bu joy qadimiy Xorazm qal'asi xarobalarini o'z ichiga oladi. Ayoq qal'ani Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi topib (1937), unda arxeologik qazishmalar olib bordi. Bu majmuadagi uchinchi qal'a mufassalroq o'rganildi. Uning sahni 260×180 m bo'lib, hovli va 40 xonali binodan iborat. Xonalarining umumiy maydoni 2400 m². Xona devorlari to'rtburchakli xom g'ishtdan terilgan. Ayoq qal'a majmuasida, asosan Kushon podsholigi davriga doir sopol, mehnat qurollari, qurol-yarog'lar, zeb-ziynat buyumlari va tangalar, jumladan, Kanishka pullari topildi. Ayoq qal'a o'z davrida Xorazmning shimoli-sharqiy chegarasida mustahkam istehkom vazifasini o'tagan. Kot Xiva bilan birgalikda Chig'atoy ulusi tarkibiga kirgan. 1372-yilda uni Amir Temur egallagan. 17-asrda yangi Kotni suv bilan ta'minlab turgan yopni Amudaryo yuvib ketganligidan Xiva xoni Ano'shaxon daryoning chap qirg'og'ida Toza Yormish yopni qazdirib, uning bo'yida bir qal'a qurdirgan (1681), so'ng eski shahar aholisi o'sha yerga ko'chib o'tgan. 19-asr boshida bu joyni ham Amudaryo yuvib ketib, yangi Kat aholisi daryoning o'ng sohilidagi Shayx Abbas vali mozori tevaragiga kelib joylashgan. Shundan e'tiboran bu yer Shobboz deb atala boshlagan. 1957-yil Shobboz shaharchasiga Beruniy nomi berilgan. 1962-yildan shu nomli shahar. 1937-yil S. A. Tolstoy rahbarligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi Kat shahar harobasida tadqiqot ishlari olib borib quyidagilarni aniqladi: u yerda saqlanib qolgan qal'a vayronasining maydoni 220×220 m, burjlar bilan mustaqamlangan. Qal'aning janubi-sharqiy burchagidagi ko'shk (54×54 m) esa qalinligi 6 m, bal. 11 m keladigan devor bilan o'ralgan. Topilgan tangalarning bir tomonida qirra burunli, soqoli siyrak, ko'zlari katta-katta Afrig' tasvirlangan, uning bo'ynida ikki qator marjon shodasi, boshida esa old qismini yarim oy bezatib turgan toj mavjud. Tangalarning ikkinchi tomonida an'anaviy chavandoz tasviri, uning tepasida yunoncha, ostida esa xorazmiy tilida „podshoh Afrig“ deb bitib qo'yilgan. Shayx Abbas Vali maqbarasi, minora va pishiq g'ishtdan qurilgan shahar devori qoldiqlari

hamda qal'a harobasi hozirgacha saqlanib qolgan. Xalq mazkur qal'ani „Pil qal'a“ („Fil qal'a“) deb ataydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Yusupov.X.,„Путеводитель по археолого-архитектурным памятникам Ташаузской области“. Туркменистан (1989). 23-may 2023-yilda asl nusxadan arxivlandi.

2.Tolstov.S.P."Древний Хоразм"М.1948

3.Yahyo G'ulomov."Qadimgi Xorazm sug'orish tarixi.Qadim zamonlardan hozirgacha". T.1959

4.O'zbekiston qadimgi madaniyati T.1944

5.Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. T.1964